



№ 4 (84),  
2020-yil aprel

# IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

## 7-aprel – Jahon salomatlik kuni



O'z vaqtida, me'yor bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi.

Ibn SINO

Sog'lik — oltindan qimmat.

V. SHEKSPIR

Vaxt salomatlik samarasidir, binobarin, har bir odam o'z a'zolarini asrab-avaylamog'i lozim.

S. SMAYLS

Sog'lik — donolar uchun davlat.

P. BERANJE

Siz o'z sog'ligingizni tong va bahordan oladigan huzur-halovatingizga qarab baholang.

G. TORO

Sog'likning o'zi huzur yoki u yoqimli olov tafti kabi so'zsiz huzur baxsh etadi.

T. MOR

Sog'lik hayotning shunday ne'matidirki, chindan ham betob podshodan sog'lom gado ming karra baxtiyordir. Baxtimizning o'ndan to'qqiz ulushi sog'ligimizga bog'liq.

A. SHOPENGAUER

Sog'lik undan bahramand kishiga ham boshqalar uchun ham buyuk ne'matdir.

T. KARLEYL

Sog'lik — boylikdan a'lo.

J. REY

## “БИР ЁМОННИНГ БИР ЯХШИСИ ҲАМ БОР”

Ассалому алайкум!

Азиз дўстлар, ҳамкасблар, мухтарам ижод аҳли!

Воқелик тақозоси билан ҳадик-хавотирдан серташвиш ўтаётган шу кунларда барчамиз тонгда кўз очгандан то тун қоронғусигача бирор ёруғ маълумот, таскин илинжида ахборот воситаларига нигоҳ қадаяпмиз. Фасли баҳорнинг айни табиат уйғониб, наботот олами гулга кирган энг гўзал паллада қалбларимиз бори дунёдан келиб турган турли хабарлардан озурда ҳолда, тафаккуримиз бўлиб турган воқеликларни тинимсиз таҳлил этиш, оила ичи ёки мобил воситалар орқали дўст-биродарлар билан ахборот, фикр алмашиш ҳаракатларида андармон. Айниқса, ижод аҳли бу жараёни бори миқёсида моҳияти билан, ўтмишда кечган шунга ўхшаш тарихлар билан, ўқиган турли адабиётларимиз, томоша қилган фильмларимиз билан қиёслаб, кўз ўнгимизда рўй бераётган воқеликни теранроқ англаб, ҳаётини, фалсафий мушоҳадаларга фарқ бўлиб ўтирибмиз.


Эҳе, хаёл қай гўшаларга олиб қочмайди дейсиз... Фикрат эса яна хушёр мушоҳадаларга ундайверади...

Дунё адабиётида ва санъатида бугунгидек глобал миқёсдаги таҳликали ходисаларни хоҳ тарихий реал

кечмишлар, хоҳ келажак фантастик оламларда рўй берадиган ходисалар сифатида тасаввур этиб тасвирланган юзлаб асарлар мавжудлиги барчамизга маълум, албатта. Одатда бундай тоифа асарлар оддий мутолаа, томоша, вақт ўлдириш эрмаги ўлароқ хизмат қилади ва эгалари - муаллифлари, ижодкорларига яхшигина молиявий фойда ҳам келтиради. Айни йўналишдаги шундай беҳисоб китоб, киноасарлари орасида том маънодаги юксак бадиият намуналари ҳам талайгина учрайди. Албатта, мазкур жанр - йўналишдаги юксак бадиият намуналари ўқувчининг шунчаки вақтини ўлдириб, бефарқ қолдирмайди, аксинча, оромини ўғирлаб, тинчини бузади, мувофиқ мушоҳада ва ибратли хулосаларга ундайди. Бунинг намуналари ҳақида машҳур Гомердан бошлаб Альбер Камюгача, Абулқосим Фирдавсийдан то Чингиз Айтматов асарларигача иқтибос келтириб, соатлаб сўзлаш мумкин. Аммо мақсад бу эмас.

Мақсад шуки, тождор зарра (коронавирус) бутун қурраи заминни забт этиб, умумжаҳоний ташвиш, тарадудларга сабаб бўлаётган экан, бундан ниҳоятда муҳим, хушёр хулосалар чиқариб

олишимиз шарт. Бу, айниқса, ҳақиқий ижод аҳлига мурожаатан айтилаётган фикрдир. Фикрки, бу қаламу мўйқалам тутган, елкасига кинокамера



ортган, сахна пардаси олди-ортида турган... ва ҳоказо, ва ҳоказо барча ижод заҳматқашларига уйғоқлик даъвати ўлароқ, мазкур воқеликни бори ходисоти, миқёслари билан кузатиб, ўрганиб англаб, таҳлил қилиб, тўлиқ идрок эта бориб, не бир хулосалар чиқармоқ, шу аснода кўнгилдан, ҳаёлдан кечганларини ўзлари ҳаёти мазмуни дея белгилаган ижод йўсинида бадиий муҳрласалар, қоғозларга, ки-

ноленталарга туширсалар деган холис андишадир.

Эсласангиз, иккинчи жаҳон урушининг фронт кундаликлари Константин Симоновнинг “Ўликлар ва тириклар” роман - эпопеясига, киноленталарга олинган хужжатли хроникалар эса Михаил Роммнинг “Оддий фашизм” деб аталган буюк киноасарига асос бўлган. Ўзбек адабиётида Ойбекнинг кундаликлари, Асқад Мухторнинг “Тундаликлари”, Малик Қаюмовнинг ўтган аср 20-йилларидан то 80-йилларигача суратга олиб қўйган солномалари кейинчалик миллий адабиёт ва санъатимизнинг мумтоз намуналари яралишига асос - негиз бўлган.

Даъватдан илҳом ҳам шуки, замонавий адабиётимиз ва санъатимизда анчадан бери излаб, изланиб, тополмай, ўзимиздан, мажбурий “ижодболиклардан” қониқмай юрган ҳолатимиздан чиқиш, илҳом дулдулларига майдон яратиш учун фурсат ва имкон етди. Воқелик, мана шу тарихий вазиятнинг ўзи адабиёт ва санъат учун чексиз мавзулар ва давр қаҳрамонларини ҳаёт сахнасида чиқариб турибди. Шоир сатрини бироз таҳлиллаб айтса, “мана сенга олам-олам мавзу, қаҳрамон, этагинга сиққанича ол!”

Нафсиламмирини айтсак, яқин бир неча ўн йиллардан бери адабиётимиз

ва санъатимизда воқеа бўларлик буюк ижодий яратилар деярли бўлмади. Юзлаб катта-кичик мажлислар, конференциялар, учрашувлар, давра суҳбатлари уюштирилди.

Ҳозирги замоннинг қаҳрамони ким, қай тахлит мавзулар наср, драматургия, кино, театр ва ҳақозо турли санъатларнинг қайта жонланишига туртки беради дея ташкил этган маҳаллий ва ҳатто халқаро издиҳомларнинг саногий йўқ. Бироқ не бир ақлли яқунларга келиб не-не ташаббуслар билан резолюциялар қабул қилмайлик, пировард натижа самарасиз, сўник бўлиб чиқаверди, адабиёт, санъат жамият машъаласи ўларок нур тарата олмай, хира шуъла бериб, таг-атрофига соя мисол алдамчи таасурот тарқатиб турди. Ваҳолангки, бу соҳалар ривожига озмунча эътибор, ҳиммат кўрсатилаётгани барчанинг кўзиди.



Шоирларку тезкор назмлари билан таъббости қилиб туришибди. Гарчи фалсафаси, фикртеранлиги, метафора, образлар охори билан “оҳ” деярли ҳолатга тушмасак-да, ҳа энди сув йўғида таяммум-да дея ўтпимиз. Ўша шеърлардан қўшиқ, бадихалар ясаб, катта-кичик давраларни Ватан, халқ, она-юрт манзаралари, ўзгариш, янгилинишлар мадҳияси ўларок вазиятдан чиқиб турибмиз. Бироқ бир савол, ҳамма давра ва даврларда берулгувчи сўрок - замона оинаси - кўзгуси бўла оладиган битиклар, фильмлар, спектакллар яратилдимми, яратилаяптими?! Балки кимдир “бу гаплар нисбий, дид-тушунча, савия билан боғлиқ, бирор муносабатни шартга кесиб, қатъий хулоса чиқариш мумкинмас, бу сенинг қарашинг, сенинг ёндашувинг”, дея таъна қилиши, ҳатто ўзингизга айб юклаб маломат ҳам қилиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Ҳар қалай, онгли умри шу кори изтиробнинг ичида ўтаётган бир “...шунос” сифатида ўшандай андишаларга бораман. Кутубхона ёки китоб дўконлари гавжум, театр заллари, кинотеатрлар маънавий озук илинжида жонсарак зиёли, фикрловчи томошабин билан файзиёб бўлишини яна кўргим келади.

Ажабмаски, ҳозир бутун инсоният кечмиш кунларида юзма-юз бўлиб, каттол бало қаршида рўбарў турганимизда бадий тафаккур тиқинлари очилиб кетиб, қалб изтироблари не бир тўғонларни бузиб юборса ва шу давр, шу давр инсонлари турфа қиёфасининг нуктабин кўзгуси бўладиган асарлар яратилса. Назаран, бу орзу – ўлат пайтидаги базм (“пир во время чумы”)дек туюлиши мумкин. Йўқ, асло, бундай эмас. Ўлимга ҳукм ки-

линг Федор Достоевский қатл олди сонияларини бадий тафаккур учун не-не синоатлар эшигини очиб, не туйғулар пўртанасини пайдо этишини ўз кундаликларида қайд этганидек ёки Виктор Гюгонинг “Ўлимга ҳукм этилган одамнинг сўнгги куни” (“Последний день приговоренного к смерти”), Лев Толстойнинг “Петр Ильичнинг ўлими” қиссаларида тасвирланганидек, руҳиятнинг фавқуллода жунбушга келиб, даҳоликка шаҳодат бўладиган асарлар яратилиши учун манбаъ вазифасини ўташи - мана бадий тафаккурнинг асрлар оша барҳаётлик белгиси, ўзига хослиги, абадияти.

Сўзларим бироз энгилроқ айтилаётгандек туюлмасин. Чини билан ҳам неча ўн йиллардан бери маёғини йўқотган оввора каби сарсон ижод аҳли учун инсоний эҳтиросу ҳолат-ҳодисаларнинг бемисл кенгликлари

пайдо бўлди. Не-не сюжет-тарихлар, турфа феъл-атворларнинг намоён бўлиши, моҳият майдонлари очилапти. Бугунги дунё ва бори инсоният кечмишлари, хатти-ҳаракатлари муқояса этиб, ўзимизникини, миллий қадрият-анъаналаримиз, истиқбол учун белгилаган йўл-йўриқларимизни синовдан ўтказиб олиш, идрок этиш имкони яраляпти. Булар адабиёт ва санъатимиздаги бўшлиқларни тўлдириш, янги маънавий оламларни кашф этиш, ижод аҳлининг бори вужуд билан кўксини тўлдириб нафас олиш имкониятидир.

Четда, оддийгина кузатувчи бўлиб турмайлик. Бу ҳиёнат бўлади, ўзимизга, ўзликимизга, АЛЛОХ берган истеъдодимизга, ва ҳатто шу азиз ОНА-ВАТАНга ҳиёнат бўлади.

Тиббиёт аҳли ўзининг, бола-чақасининг умр-жони ташвиши қолиб, жабҳага ўзини урса, соғ ҳолида касалланганлар орасига кириб муолажа, кўмак бераман, деб турса, бу уларнинг фақатгина Гиппократ қасамига кўра садоқатимикан?! Бу ВАТАН туйғусининг, ватанпарварликнинг, ўз ватандошига жонфидалиқнинг олий кўрinishи эмасмикан?!

Шавкат Мирзиёев Ўзбекистоннинг раҳбари сифатида фаолият бошлаши билан дастлабки учрашув, суҳбат, қарорлари асосан мамлакатимиздаги тиббиётнинг аҳволи, унинг, ниҳоят-да ғариб ҳолати, муаммо ва ечимлари масалалари билан боғлиқ бўлди. Шундай бўлиши мантиқан жуда тўғри эди. Чунки бори ислохотлардан мақсад инсон бўлсаю унинг жисмоний соғлиғи энг устивор масала бўлмаслиги мумкин эмас эди. Мана орадан уч ярим йил вақт ўтиб бу иш накадар

тўғри бўлганини бу кунги вокелик аён исботлаб турибди-ку.

Талабалар шаҳарчасига авто уловларини қатор териб қўйиб, мамлакатнинг тўрт томонига толиби илмларни беғараз элтаман дея хизматга шай турганларни оддий киракаш дейиш эндиликда ҳақоратдек эшитилса керак.

“Дугога, бепул маска тарқатамиз” деб эшигига катта эълонлар осиб қўйган ёки рўзғори тангроқ ҳам соя - маҳалладошларига шу таҳликали пайтда кўча-қўйда сарсон юрмасин, рўзгор тирикчилигидан алам чекмасин дея ҳиммат, оқибат кўрсатаётган дўкандору тадбиркорларни қандай ҳис-туйғулар бошқараётган экан.

Матбуот хабарича, Қашқадарёнинг Чирокчисидида умр бўйи мол-ҳол боқиб, қўйчивонлик, чўпонлик қилиб ўтган 95 ёшлик бобо умр бўйи Ҳаж зиёрати умидида йиққан маблағига қишлоғида катта кўприк қураётган эмиш. Бу масжид, мадраса қуриб, охират савобини ўйлаган қайси бойу савдогарнинг ҳимматидан кам? Балки ортиқроқ ҳамдир. Бойу савдогар ҳиммат қилса, баридан бир улушини сарфлар, чўпон-чўлик одам бундай шахду шиддатга борса, борини берса керак, албатта.

Бу каби мисоллар ҳозир матбуот, ижтимоий тармоқларда дарёча бор, тинимсиз тўлиб-тошиб оқиб турибди.

Айни пайтда, гуруч курмасиз бўлмагандек, ўз бепарволиги ёки нодонлиги, атроф-ҳолатни, вазиятни ҳис этиб, узокни кўролмагани ёки бевоқиф хизмат, вазият тақозоси билан 14 кунлик чекловга тушганлардан, ҳануз эҳтиётсизлик, энгил-елпи муносабат кўрсатаётганлардан ҳам битта-яримта мисоллар бўлиб турибди. Шу билан бирга “кимга тўй, кимга аза” деганларидек, қасрона уйлари кўз-кўз қилиб, тўқчиликдан лаб-лунжини йиғиштиролмамай”, “уйга қолинг” даъватига жавобан қозонини эту-мойга тўлдириб, алламбало анвойи таомлар пишираётганини ошқора намойиш этиб, ижтимоий тармоқларни тўлдираётган худбин кимсалар - “ватанига бахтни тилайди”ган “санъат”чилар, нораво бачкана қилиқлари билан халққа гўёки хушқайфият улашаман, деган овсарнусҳалар ҳам учраб қоляпти. Булар синовли кунларда узок яқиндаги миллатдошларининг тирикчилик рўзғори – “эл-юртнинг дастурхони қандай деган андишанинг кўчасига кирмай, ўз тўқлигини бори оламга намойиш этиш нокамтарлик-кина эмас, балки камида одобсизлик, бадбинлик, юртдошларга беписандлик эканини англарикиданлар?! Таасуфки, булардан ҳам кўз юмиб бўлмайди. Билҳақ, ана шулар-да ижод аҳлига асарларининг конфликтларини топишга, бадий-психологик таҳлил, фикрий коллизиялар, турфа характерлар ва уларнинг тўқнашув, зиддиятлари асосида воқеликнинг асл моҳиятини очишга, сюжетнинг қизиқ ва жозиб бўлишига, бадий етукликка хизмат қиладиган унсурлар.

Демокчиманки, вазият талаби билан уйда ўтирган жамики оила, уй-ичи, қондошлик ришталарини мустаҳкамлаб, мутолаа давралари, оила-

вий гурунлар, дилдошлик, ҳамрозлик муносабатларини ростмана қарор топтираётган эканлар, ижод аҳли ана шу вазиятда бадий яратилар учун асос бўладиган битиклар билан машғул бўлсалар, айни муддо бўлар эди. Ахир доно халқимиз “Бир ёмоннинг бир яхшиси ҳам бор” деб балки шундай ҳолатларни ҳам бошдан кечириб айтгандир.

Очиғи, ҳозирги шитобли, югурик замонда, бироз тўхтаб, тин олиш, ўз кечмиш хатти-ҳаракатларимизни мушоҳада этишдан йироқлашиб кетаётган эдик.

Турмуш – муш экан, тирикчилик, рўзгор – ғор экан, орзу-ҳавас бизга хос экан, дея хотиржамликни йўқотиб, ўзимизни ҳар ён уриб юрганамиз ҳам ҳақиқат. Нафақат биз – яқкаш инсонлар, балки бутун инсоният бу жаҳду жадалдан бироз тўхташи, олду-ортга эътиборсиз қаерга бу қадар шошиб чопайётганини англаши учун Яратганининг ўзи фурсат беряпти, назаран. Аллоҳнинг кўзга кўринмас бир митти зарраси бори ер шарининг мувозанатини бузворай деяётган шу синов паллада сарак саракка, пучак пучакка ажраляпти. Маданияти тугалликка даъводаги не-не мамлакату элларнинг қандай қўйга тушаётганига гувоҳ бўляпмиз. Айни чоғда Ўзбекистондек ўттиз тўрт миллионлик аҳоли жоннинг ҳар биттаси учун бори масъулиятни зиммасига олиб, том маънода матонатини намойиш этаётган Раҳнамомизни ва давлат, ҳукумат фидойиларини ҳам кўриб турибмиз. Яна ўша уч ярим йил аввал айтилган фикр: “халқ давлат идораларига эмас, балки давлат идоралари халққа хизмат этиши керак” деган шахдушидат ёдга келади. Ана бу ҳам шу кунда тўла исботини топаётгани айни ҳақиқат. Шу ўринда кўнгилинг яна бир эътирофики, биз бугун халқ, миллат эканимизни ростмана инқишоф этаяпмиз. Беназир шоиримиз Абдулла Орипов бир пайтлар “қачон халқ бўласан, эй сен оломон?!”, дея алам билан хайқирганида не-не қалблар қалқиган эди. Ўша хайқирик бугун бор моҳияти ила акс-садо бераётгандек, биз бир туғ остида бирлашганимизни ҳис этаётгандек бўляпмиз. Дард, дардошлик эмас миллатдошлик, ватандошлик туйғуларни бизни ҳамжихат қиляпти. Илоҳо, рост бўлсин!

Мана биз учун, бутун ижод аҳли учун шарафли мавзулар, мазмунлар, ҳолатлар, қаҳрамонлар, Мазкур вазият бизни янада бурчлироқ қилиб қўяётганини ёддан чиқаришга ҳаққимиз йўқ. Аксинча, бу важдан даъвати ўларок бизни бот-бот уйғоқликка, темир сафда туришга, маънавий сафарбарликка ундамоғи шарт.

Иншааллоҳ, бу балолар чекингуши, бу кунлар ўтгуси. Ўша дамларда биз - адабиёт ва санъат аҳли кўзимизни ергатикиб, қизарган юзимизни яширадиган ҳижолатли ҳолатга тушмаслигимиз керак. Барчамизга соғу омонлик, сабру бардош, хотиржамлик, бирлик, ҳамжихатлик, меҳру оқибат неъматларини истаб

**Шухрат РИЗАЕВ,**  
Адабиётшунос,

## AJDODLAR MEROSI – MANGU BARHAYOT

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit bo'lishi lozim. Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan va Sharq G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududi ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, o'rta asrlarda yurtimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqanligi bunga misoldir. Ularning matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, astronomiya, etnografiya, tarix, axloq, falsafa, adabiyot kabi ko'plab sohalariga oid asarlari, Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz, Toshkent va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil

7 fevraldagi 56-f-sonli Farmoyishiga muvofiq O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida an'anaga aylanib ulgurgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'rnatilgan tartibda onlayn tarzda o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi murojaatnomasida O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari nafaqat ilm-fan, balki mamlakatni obod qilish yo'lida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, balki xalqqa ko'rsatilgan sahovatlar haqida so'z yuritdilar. Shuningdek, 2020 yil 2 martda qabul qilingan "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ham institutda buyuk muatafakkir allomalimizning boy tarixiy merosini yanada chuqur o'rganishga asos bo'lmoqda. Prezidentimizning "O'zining tarixiy, madaniy va intellektual merosini asrab-avaylashga, boyitish va ko'paytirishga, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e'tibor qaratmaydigan, har tomonlama uyg'un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o'z qarash va yondashuviga, grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan har qanday davlat va jamiyat tarix va taraqqiyot yo'lidan chetda qolib ketishga mahkum ekanini biz o'zimizga yaxshi tasavvur qilib kelganmiz va yaxshi tasavvur etamiz", degan fikrlari institutimizning ilmiy va ijodiy ishlar ko'lamini yanada kengaytirishga, uni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lumki, O'rta asrlarda Sharq ilm-fanini rivojlanishida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutadi. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda

yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgani barchaga ma'lum. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Bugun Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixida katta iz ioldirgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar, o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan. Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so'nmas daholariga hurmat-ehtiram, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha ortib bormoqda. Buning tasdig'ini esa turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniya o'rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasi hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq uchinchi marotaba o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyada Muhtaram Prezidentimizning "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir", degan fikrlari g'oyaviy asos qilib olindi. Konferensiyada ishtirok etgan xorijiy mehmonlar, respublikamiz oliy ta'lim muassasalaridan qatnashgan olimlar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va yosh olimlar tomonidan taqdim qilingan maqolalar 2018 yilda shu mavzuda o'tkazilgan konferensiyaga taqdim qilingan maqolalarga nisbatan jiddiy ishlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalariga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turdi, shuningdek, konferensiya bugungi kun nuqtai nazaridan g'oyat dolzarb mavzuda tashkil etilganligi barcha ekspertlar tomonidan alohida ta'kidlab o'tildi. Zero, O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, dunyo taraqqiyoti va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissasi butun insoniyatning ma'naviy boyligi bo'lib, uni o'rganish, tadqiq etish, avlodlarga yetkazish zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Abdulloh Ro'dakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparvarlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni gumanistik anglashning juda ulkan, bitmas-tuganmas xazinasi saqlanib kelmoqda. Dunyo tarixidagi birinchi turkiy tillar lug'ati bo'lmish "Devoni lug'atit-turk" kitobi muallifi

Mahmud Koshg'ariy bo'lib, u o'z asarida yuksak mahorat bilan to'plashga erishgan so'z boyligining tom ma'nodagi oltin zarralarini — turkiy maqol va she'rlarni ham keltirib o'tgan. Koshg'ariy turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining birinchi tadqiqotchisi hisoblanadi. Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan buyuk tilshunos, adabiyotshunos, geograf va faylasuf alloma — Mahmud Zamahshariy hayotlik davridayoq keng shuhrat qozongan. U, shuningdek, tarixdagi birinchi ko'p tilli lug'at —



arabcha-forscha-turkiy lug'atning asoschisi bo'lgan. Albatta, biz barchamiz o'rta asrlarda Sharqda yashab ijod qilgan, o'sha davr voqealaridan guvohlik beradigan bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar avlodiga, eng avvalo, Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa allomalarga o'zimizning cheksiz hurmat-ehtiramimizni bildirishimiz ham qarz, ham farzdir.

O'tkazilgan konferensiyaning maqsadi — o'rta asrlarda yashab, ijod etgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining san'at, madaniyat, musiqa, tasviriy san'at, me'morchilik sohalaridagi tadqiqotlar asosida yaratgan risolalarini chuqur o'rganib, muhokama qilish, ular tomonidan yaratilgan ilmiy meros butun dunyoda ilm, fan va madaniyatning deyarli barcha sohalarida taraqqiyoti uchun asos bo'lganligini isbotlash va shu orqali yoshlarga qalbiga milliy g'urur, Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Xalqaro konferensiyaning vazifasi esa ulug' alloma va jamoat arboblari, o'zbek xalqining ulug' adiblari merosini chuqur o'rganish, o'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy qarashlarini o'rganayotgan tadqiqotchilar tomonidan erishilgan natijalarni tahlil qilish, mamlakatimizdagi madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot mavzularini o'rta asr Sharq allomalari ilmiy meroslarida ilgari surilgan g'oyalar asosida o'rganish, tarixiy mavzuga oid diplom spektakllari, kinofilmlar yaratishga, doston va g'azallarni musiqa, qo'shiq va badiiy o'qish orqali chuqur o'rganishdan iborat.

"O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya yalpi majlisida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi boshqarma

boshliqlari, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi o'qituvchilari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti olimlari va tadqiqotchilari, institutning yetakchi professor-o'qituvchilari, yosh olimlari qatorida Respublika oliy ta'lim muassasalaridan (MRDI, O'zDK, TDMRXOM, O'zRFA San'atshunoslik instituti O'zDSMINukus filiali, O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali, TDPU, TAQI, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi) yetakchi professor-o'qituvchilar, doktorantlar, shuningdek, poytaxt teatrlaridan (O'zbek Milliy akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali teatr) rahbar xodimlar, aktyor va rejissyorlar hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, Altay davlat madaniyat instituti, M.Turzunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san'at instituti, Nizomiy nomidagi Ozarbayjon adabiyot institutining rektorlari, prorektorlar, yetakchi olimlari, mutaxassislari ham konferensiyada onlayn ishtirok etishdi.

Yurtimizda o'zining yuksak salohiyati, keng dunyoqarashi va noyob iste'dodi, mislsiz kashfiyotlari tufayli jahon ahlini hayratlantirib kelayotgan ulug' allomalar kamol topganligi, jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oni, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalimizning asarlari oradan necha asrlar o'tsa hamki, dunyo tamaddunida o'z ulug'vorligini saqlab kelinayotganligi, shu bilan birga, mamlakatimizda istiqbolning dastlabki yillaridanoq Prezidentimiz rahnamoligida qadr-qimmat bilan abadiyotga daxldor ilmiy, madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, keng miqyosda o'rganish, xalqimizga yetkazishga katta e'tibor berilayotganligini ta'kidlab o'tdilar.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosini o'rganish asosida san'at ta'limi tizimida o'qitiladigan tegishli fanlarga yangi ma'lumotlar ajdodlarimizning ilgari bizga ma'lum bo'lmagan ilmiy merosini o'rganish yoki o'rganayotgan tarixchi olimlar, manbashunoslar, sharqshunos, san'atshunos olimlarning tadqiqotlari bilan boyitiladi va yangi-yangi san'at asarlari yaratiladi. Konferensiyada ko'tarilgan masalalarning muhokamasi natijasida yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari va ko'lamining oshishiga erishiladi, ilmiy-tadqiqot mavzular ko'lamini kengayadi, mavzular banki yaratiladi. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosini o'rganishga bag'ishlangan kurs ishlari, BML, MDI, DD mavzulari asosida aholini ijtimoiy bilimlarini, ma'naviy barkamolligini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy maqolalar yaratiladi, diplom spektakllari sahnalashtiriladi, televideniye, radio uchun ko'rsatuv va eshittirishlar, qisqa metrajli filmlar yaratiladi. Bizning asosiy maqsadim unitilgan va unitilayotgan madaniy mersimizni qayta tiklash, uni kelajak avlodlarga asosini saqlagan holda tadqiq etish va milliy xilma-xilligini jahon madaniyati darajasiga olib chiqishdir.

**Go'zal XOLIQOVA,**  
**Ilmiy ishlar va innovatsiya**  
**bo'yicha prorektor**

#Ustozingiz haqida...

## MA'RIFATDAN ILM IZLAGAN OLIM

Biz hayotda hamisha yaxshi insonlarga ergashib, ularga havas qilib yashaymiz. O'ta ma'suliyatli, o'z ishiga sadoqatli, iste'dodli, tashabbuskor va talabchan rahbar Abdulhalil



Abdulhayevich nafaqat tarixchi olim, balki tajribali madaniyatshunos olim sifatida ham to'liq shakllandi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mashhur nemis faylasufi I.G. Gerder o'zining "Insoniyat falsafasiga doir g'oyalari" nomli fundamental asarini yozishga kirishayotganda "Madaniyat iborasidan ko'ra noaniqroq so'z bo'lmasa kerak" deb aytgan edi. Xaqiqatdan ham, qayd etilgan fikrlar olimning "madaniyat" tushunchasini aniqlashdagi asosiy qiyinchiliklarni, uning murakkab, qarama-qarshi va ko'p qirrali mohiyatini to'g'ri tushunganligidan dalolat beradi. Men, ustozim deyishga xaqli bo'lgan Abdulhalil Abdulhayevich bilan bir institutda 40 yildan ortiq faoliyat olib borib, haqiqatdan ham garchand, shu bugungi kungacha "madaniyat" tushunchasi haqida aniq va yagona to'xtamli ta'rif

yaratilmagan bo'lsa-da, har bir inson bu iborani o'z dunyoqarashidan kelib tushinishini, "madaniyat" so'zining mohiyati shu qadar keng, uni bir so'z bilan ta'riflashning imkoni yo'qligi, madaniyat yaratilgan ne'mat bo'lsa, san'at uning yuqori darajasi ekanligini ilm yo'li orqali chuqurroq anglab yetdim.

Bilim ham ibodat ekanligini to'liq anglab yetgan ustoz Abdulhalil Abdulhayevich Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida tug'ilib, o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagach, insonning qadri ilm bilan yuksalishini o'z vaqtida anglab Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdilar va muvafaqqiyatli tamomlab, Toshkent davlat madaniyat institutida pedagogik faoliyatini oddiy o'qituvchilikdan boshlab tarix fanlari doktori darajasigacha ko'tarildi. Men shogirdlari sifatida faxr bilan ayta olamanki, ustoz respublikamizda birinchi madaniyatshunos olimlardandir. Bugungi kunga qadar, o'zining to'liq ifodasini topmagan madaniyatshunoslik yo'nalishini rivojlantirish va takomillashtirishga o'zining beqiyos hissasini qo'shib kelmoqda. Madaniyatshunoslik sohasi bo'yicha chop etilgan darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalari talaba, magistrlar uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda. Aynan ularning ilmiy tashabbuslari bilan institutimizda "Madaniyatshunoslik" magistratura mutaxassisligi ochilib, bugungi kunga qadar 100 ga yaqin magistrimiz magistraturani tamomlab, Vazirlik, muassasa, tashkilot va nufuzli oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritmoqdalar.

Eng sharafli jihati, bu yo'nalishni tamomlagan magistrimiz ilm yo'lida yana izlanishlar olib borib, jahonning nufuzli universitetlarida faoliyatlarini ham davom ettirmoqdalar. Bugungi kunda ham ustozning ilm yo'lidagi ezgu-niyatlari ularni sira tinchitmaydi. Shu bois shogirdlaridan ham shijoatni, xaqqoniylikni, ma'suliyat va oriyatlikni talab qiladilar. Ehtimol, ustozni shunday darajaga erishishida hamda talabchan rahbar bo'lishlarida men bugun fahr bilan tilga oladigan ustozlarimizning o'rni beqiyosdir. Chunki, Abduxalil Abdulyayevich bilan bir vaqtda institutga ishga kelgan paytimizda bizni institut rektori Navoiyshunos olim Aziz Qayumov, Abdulyayev Hamid Abdulyayevich, Kamolov Usmon Hamroyevichdek o'zishining yetuk bilimdonlari qabul qilib, shu kungacha ularning ibrat maktablaridan saboq olib, faoliyat yuritmoqdami. Hozir ham ustoz bilan qaysi mavzuda suhbatlashmaylik, albatta gap ustozlarimiz o'g'itlari va purma'no hikmatlariga borib taqaladi. Ustozlarimiz bizga qanchalik talabchan va mehribon bo'lganligi, ilm yo'li mashaqqatlari bilan hayot maktabi saboqlarini berganliklarini ko'p eslaymiz. To'g'ri, ular Arastu emas edilar, lekin bilim deb atalmish xazinani bizning qo'llarimizga tutqazishgan ekan. Olimlar egallagan sohalar bisyor. Muhimki, u qay jabhada bo'lmasin, o'z bilimi tirishqoqligi, g'ayrati va intilishi ortidan o'sha soxaning yetuk mutaxassisiga aylanishidir. Buni to'g'ri anglab yetgan ustoz, loqayd va befarq insonlarni, bekorchilikni yoqtirmaydilar. Vaqtini, yaxshi insonlarni juda qadrlaydilar. Kitob o'qishni, ayniqsa

tarixiy va mumtoz adabiyotlarni ko'p o'qiydilar va shogirdlari bilan baham ko'rishadilar. Ularning ilm yo'lidagi izlanishlarining natijasi sifatida qator risola va monografiyalari allaqachon o'z o'quvchilarini topgan va yana yangi lari yaratilmoqda

Ustozning yana bir ajoyib ibrat olsa arzigulik tajribasini alohida kayd etmoqchiman. Ma'lumki, shu vaqtga qadar, o'qituvchi bilim va axborot beruvchi, talaba faqat tinglovchi bo'lib kelardi. Lekin bugungi kun talabi, mutlaqo boshqacha bo'lib, talabning faolligi birinchi o'rinda turadi. Bu borada ustozlaridan to'g'ri va aniq maqsadlar maktabini tarbiyasini olgan ustoz Abdulhalil Abdulhayevich "Bugungi o'qituvchi pedagog o'z faoliyatining mohiyatiga ko'ra ijodkor, yakuniga ko'ra san'atkor bo'lmog'i lozim. Bu esa o'qituvchi-pedagogdan tashkilotchi, bilimli, ziyrak, sabrlik va muloqotmandalikni talab qilib, shogird, talabalar ma'suliyatini ham oshiradi" deydi. Ehtimol, shuning uchun hamdir hamisha ular izlanishda va ilmga chanqoq yoshlar davrasida. Ustoz sizga hamkasb va shogird sifatida tilagan bo'lardimki, shaxsiy, oilaviy hayotingiz xotirjam bo'lsin, Ilmiy izlanishdan sira charchamang. O'z shogirdlaringiz kamolidan, yutuqlaridan hamisha fahrlanib, g'ururlanib yashang. Sizda mujassam bo'lgan mehr-oqibat, samimiyat va kamtarinlik sizni hech qachon tark etmasin.

**Qunduz NISHONBOYEVA,**  
**"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida dotsenti.**

## O'ZBEK TEATRSHUNOSLIK MAKTABI FAXRIYSI

Inson – jamiyatning yuragi, uning faoliyati va mehnati ana shu yurakni ishlatadi. Oramizda shunday insonlar borki, ular har doim o'zgalarga ibrat, xalqimiz ardodagi namuna, hayot yo'llarimizdagi yo'lchiroq bo'la oladi. Halol mehnat insonni ulug'laydi, qadrini baland qiladi. Qahramonimiz Muhabbat To'laxo'jayeva ham ana shunday o'zgalarga ibrat bo'ladigan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan olim, tajribali pedagog bo'lib, ularning mehnati o'zbek teatrshunoslik maktabining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Muhabbat To'laxo'jayeva 1946 yili 23 iyun kuni Toshkent shahrida tavallud topgan, otasi O'zbekiston xalq shoiri Turob To'la, onasi Tamara To'laxo'jayeva, ukasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nozim To'laxo'jayev bo'lib, ular oilaviy adabiyot va san'at ichida yashashgan.

Muhabbat opa 1969 yili avvalgi Toshkent teatr va rassomchilik institutini tamomlagan. O'zining ilmiy-ijodiy faoliyatini Maksim Gorkiy nomidagi rus drama teatrida rejissyor yordamchiligidan boshlagan. 1974-1978 yillari Rossiyaning Moskva shahridagi Butunitifoq ilmiy tekshirish instituti aspiranturasida tahsil olgan. 2011 yildan buyon O'zbekiston davlat san'at

va madaniyat instituti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Pedagog "Teatrshunoslik" kursi badiiy rahbari bo'lib, talabalarga drama nazariyasi, xoreografiya tarixi, rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari fanlaridan saboq beradi. Sarvinoz Qodirovaning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari hamda Anvar Ismoilovning PhD doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan. Hozirda esa Gavhar Nazarova, Shahlo Xamidova hamda Matluba Isoqovalarning PhD dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlariga rahbarlik qilmoqda.

Olimaning "Uzbekskaya dramaturgiya na ssene teatra", "Rejissura uzbekskogo dramaticheskogo teatra (tendensii razvitiya i sovremenniy problema)" nomli monografiyalari chop etilgan. "O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi" 2 tomlik (hammualliflikda), 2008 va 2009 yillarda grand asosida "Zrelishniye iskusstva Uzbekistana" kitoblarini tayyorlagan. O'zbek milliy teatri 100 yilligiga bag'ishlangan "O'zbek milliy akademik drama teatri" kitobining hammuallifi, "Drama nazariyasi", "Teatr tankidchiligi" (maqolalar to'plami), "Bahodir Yuldoshev makon va zamonda", hamda

"Lyudmila Gryaznova" kitoblarini nashr ettirgan. Shu kunlarda "Istoriya teatra. Uzbekskiy teatr perioda Nezavisimosti" nomli o'quv qo'llanmasi institut ilmiy kengashi tasdig'idan o'tdi.

Muhabbat To'laxo'jayevaning ilmiy faoliyatida ko'plab tezislarda respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etilgan, "Poeziya Alishera Navoi v versiyax dramaticheskoy sseni sovremennogo uzbekskogo teatra" ilmiy maqolasi "Yevropeyskiy teatr v islamskom mire: postsovetiye transformatsii v teatralnom iskusstve stran Sentralnoy Azii" xalqaro konferensiyasida, "K voprosu o periodizatsii istorii uzbekskogo teatra" v knige "Sentralno-aziatskiy region: proshloye i nastoyasheye. Materiali Mejdunarodnogo simpoziuma"-Almati 2006, "Dialog kultur i problemi vzaimosvyazey v ssenicheskoy iskusstve Uzbekistana" v knige Pushkin-Abay i kazaxskaya literatura» Almati 2006, "Uzbekskiy teatr v period Nezavisimosti" v knige "Iskusstvo Uzbekistana na sovremennom etape sotsio-kulturnogo razvitiya" Tashkent 2006, shuningdek, olim Tyumen, Dushanbe, Kazan, Pekin, Olma ota kabi shaharlarda tashkil etilgan xalqaro konferensiyalarda koordinator va moderator sifatida ishtirok

etgan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining jamoat kengashi a'zosi, "Teatr" jurnali tahrir hay'ati a'zosi, "Pamyatniki istorii i kulturi Kazaxstana", "O'zDSMI xabarlari" jurnali tahrir hay'ati azosi sanaladi.

Muhabbat opa o'zining ilmiy izlanishlari bilan o'zbek teatrshunoslik maktabida ulkan bog' yaratdilar. Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Teshaboy Bayandiyev, Toir Islomov, Hamidulla Ikromov kabi ulug' ustozlarning yo'llarini davom ettirib kelmoqdalar. Madaniy hayotimizda yaratilayotgan ko'plab spektakllar muhokamarida rahbarlik qilib, har doim o'zlarining muhim va yorqin fikrlarini bildiradilar, yosh mutaxassislariga va talabalarga o'rgatishdan tolmaydilar.

San'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat To'laxo'jayeva bu yili 74 yoshni nishonlamoqdalar. Teatrshunos olimaga sihat-salamatlik, ilmiy-ijodiy faoliyatida yanada ulkan zafarlar, har doim millat ardodida bo'lishni, uzoq umr ko'rishni tilab qolamiz.

**Dostonbek RAHMATULLAYEV,**  
**Gavhar NAZAROVA**  
**O'zDSMI doktorantlari**

**Muassis:**  
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

**Bosh muharrir:**

**Tahrir hay'ati:**  
Go'zal XOLIQULOVA  
Ma'rufjon YULDASHEV  
O'tkur ISLAMOV  
Antonino KOSHELEVA  
Rashid USNATOV  
Junagul NISHONOVA  
**Mas'ul kotib:**  
Alimurod TOJIYEV  
Nafisa RAIMQULOVA

**Tahririyat manzili:** 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

**Telefon:** (0-371) 230-28-13.

www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har o'ying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz-1.

**Sahifalovchi:**  
**Shahriyor IBRAGIMOV**

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.  
O'Ichami – A3, hajmi 2 bosma taboq.  
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
Chop etishga 30.03.2020 yilda topshirildi.